

XIX-ASR BUXORO VA ROSSIYA MUNOSABATLARI TARIXI

Ergashov Fayoz Ibob O'g'li

Turon Zarmad Universiteti Tarix Fani O'qituvchisi

Telefon:+998995892027.E-mail : fergashov206@gmail.com.

ИСТОРИЯ ОТНОШЕНИЙ БУХАРЫ И РОССИИ В XIX ВЕКЕ..

Эргашов Файоз Ибод Огли

Преподаватель истории в Университете Турон Зармад

Телефон: + 998995892027. Электронная почта: fergashov206@gmail.com..

Аннотация: В статье научно анализируются источники по истории отношений Бухарского эмирата с Российской империей в 1920-1950-х годах и их взаимосвязи, проводится сравнительный анализ воспоминаний Г. Мейендорфа, Э. Эверсмана, Будрина.

Ключевые слова: и фразы; Г. Мейендорф, воспоминания, Э. Эверсман, Будрин, Бухара, Россия, воспоминания

THE HISTORY OF BUKHARA-RUSSIAN RELATIONS IN THE 19TH CENTURY

Ergashov Fayoz Ibob Ogli

History teacher at Turon Zarmad University

Phone: + 998995892027.E-mail: fergashov206@gmail.com

Annotation: This article scientifically analyzes the sources on the history of relations between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire in the 1920s and 1950s and their interrelationships. G. Meyendorf, E. Eversman, Budrin's memoirs are compared

Keywords: and phrases: G. Meyendorf, memoirs, E. Eversman, Budrin, Bukhara, Russia, memoirs.

Tarixning shonli sahifalariga nazar solsak ,bunda Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtaqidagi o'zaro munosabatlarning qimmatli manbalariga yuzlanamiz. XIX-asrning 20- 50-yillari oralig'ida Buxoro va Rossiya o'rtaqidagi munosabatlar tarixini diplomatic missiya vakillari va elchilarning esdaliklari, sayohatchi hamda savdogarlarning saforatnoma, xotiranoma va kundaliklari yordamida o'rgansak bo'ladi. Bunda bosh manba sifatida "G.Meyendorf, E.Eversman, Budrin, N.Xanikov, N.Zalesov, N.Ignatyev" [1:278-b]va boshqalarning asarlarini alohida ta'kidlash lozim. Asarlar mualliflari asosan o'zlari borib ko'rgan mamlakatlar va o'zlari kuzatgan xalqni tasvirlab bergenlar. Buxoro va Rossiya o'rtaida savdo aloqlari yuksalishi o'z navbatida diplomatic munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birgina 1804-1808-yillarda Buxorodan Rossiyaga Miralouddin, 1816-hamda 1819- yillarda Mirza Muhammad yusuf "qo'rchiboshi" boshliq elchiliklar yuborildi. Rossiyadan Buxoroga

1803- yilda Goverdovskiy, 1809- yilda Abdulnosir Subxonqulov elchiliklari va 1820- yilda A.F.Negri boshliq diplomatic missiya yuborilishi ham o'zaro munosabatlar tarixidan dalolat beruvchi manba hisoblanadi. XIX-asr Buxoro va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning tarixshinoslik tahlilida ayniqsa, A.F.Negriboshchiligidagi diplomatic missiya tarkibida bo'lgan G.Meyendorf, E.Eversman va Budrin asarlari qimmatli ahamiyat kasb etadi. 1824- yilda Buxoroga yuborilgan savdo karvonining boshlig'i E.Kaydalovning "xotiranoma"si [2:439- b] va G.Spasskiyning asari o'ziga xos xarakterga egadir. Biz bu manbalar asosida Buxoro va Rossiya o'rtasidagi savdo va diplomatic aloqalar ,savdodagi o'zaro ayrboshlanadigan mollarning turi, hajmi, narxi haqida; elchiliklarning yuborilish sabablari va natijalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Bu asarlar qimmatli manba bo'lganligi bois hamisha tarixshunoslarni qiziqtirgan va turli tillarga tarjima qilingan. Bunga yaqqol misol qilsak,G.Meyendorfning " Orenburgdan Buxoroga sayohat..."asari fransuz tilida turkolog Amadey Jobert tahriri ostida 1826- yilda Parijda nashr etiladi. Shu yilning o'zida nemis tilidagi tarjimasi K.Xermi va V .Sheyder tahriri bilan nashrdan chiqadi. G.Meyendorf o'z asarida shaxsiy mushohadasi, eshitgan va so'rab bilgan ma'lumotlari hamda o'zidan oldingi tarixchi va sayohatchilarining xotiranomalaridan keng foydala- nadi. G.Meyendorf Buxoro va Rossiya aloqalari qadimiyligi va uzlusizligini ta'kidlab,"Baron Gerbergshteyn buxoroliklarni Moskva-da, Yermak bo'lsa, ularni Tobolskda uchratganlar, shunisi ham borki ular Sibir bilan qadim zamonlardan beri savdo-sotiq qilardilar", [3:231-b]-deb yozadi. L.Meyer va A.Shepelevlarning bergen ma'lumotlariga qaraganda, "1820-yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan diplomatic missiyaga Orenburgdan Buxorogacha bo'lgan savdo karvonlarini qurolli kuchlar bilan kuzatish masalasi bo'yicha mu- zokalar olib borish" [4:45-b] vazifasi yuklatilgan. Ammo G. Meyendorf asarida bu masala haqida hech qanday ma'lumot keltirilmaydi. Rossiya va Buxoro munosabatlari tarixida 1871-yilda Orenburgda nashr qilingan Budrinning estalik xotiranomasi qim- matli manba hisoblanadi. Ammo G.Meyendorfning ham, E.Eversmanning ham asarlarida rus ruhoniysi Budrin estaliklari haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi, garchi ular bir missiya tarkibida bo'lgan bo'lsalarda. Bunda ruhoniy Budrin o'z xotiranomasida"13-dekabr kuni ertalab soat 11 da buxoroliklardan 40 kishi elchini qarshi olib, uni buxoroliklar yeriga sog'- salomat kelgani bilan tabrikladilar"[5:14- b],-deb yozadi. Budrin o'z xotiranomasida "Elchingning xon bilan bo'lgan butun aloqasi shaxsan vazir bilan muzokara shaklida yoki xat orqali olib borilar edi",-deya ta'kidlaydi.Budrin A.F.Negri va Buxoro amiri Haydar o'rtasidagi munosabatlarni qayd qilar ekan, missiya o'z oldiga qo'y- gan maqsadlarni deyarli natijasiz tugatganligini yozadi.

.Eversman asarihaqida V.G.Geptner fikr bildirib, "Eversman asarida boshqa adabiyotlardan dalil qilib keltirilgan hech qanday qiyosiy ma'lumotlar va misollar bo'lmay, unda avtor ko'rganlarini bayon qiladi. Lekin ,voqealarning bunday soda qilib bayon qilinishining o'zi asarning fazilatlaridan biridir"[6:22- b],- deb aytadi. E .Eversman o'z asarida Bimbe tomonidan tuzilgan Buxoro shahrining sxematik planini ham keltirgan .E.Eversmanning "Reise von Orenbourgpass Bushara" nomli asari professor X.Lixtenshteyn muqaddimasi bilan 1823- yilda Berlinda nemis tilida bosilib chiqishi ham, kitobning qiymati - ni belgilab beradi. Bu asarning ingliz tilidagi tarjimasi ham bo'lib,u 1823- yilda Londonda "Russian missiona into the interior of Asia" [7:131- b] nomi ostida nashr qilingan.. Manbalarda keltirilishicha 1848- yilda Buxoro elchisi Mirza Xayrul- laga berilgan yorliqda ikki

davlat o'rtasida qadimdan davom etib kelayotgan do'stlik munosabatlarini mustahkamlash uchun Buxoro amiri rus hukumatidan Buxoroga o'z vakilini yuborishni so'raydi. 1857- yilda xuddi shunday mazmundagi so'rov yana bir marta amalga oshirilgan. Shunga javoban Rossiya hukumati 1858- yilda polkovnik N.Ignatyev boshliq diplomatic missiya yuborilgan. Biz N.Ignatyev harakatlari haqidagi ma'lumotlarni uning o'zi yozgan va N.Zalesov yozgan asarlardan bilib olsak bo'ladi. N.Ignatyev asari 1897-yilda Peterburgda nashr qilingan .N.Ignatyev asarda shunday fikrlarni keltiradi -“Biz tavsiya qilayotgan shartnomaga rozi bo'lishi va uni tasdiqlash kerakligiga amirni ishontirishda uni qo'rqtish, bularni qaytargan vaqtda esa ,biz Osiyo mahsulotlarisiz qanoatlanishimiz mumkin, deb ogohlantirish lozim deydi.

Manbalar va adabiyotlar:

1.Н .Игнатьев.Миссия в Хиву и Бухару в 1858г. флигель-адъютанта полковника Н.Игнатьева. Спб,1897,278- Бет.

2.Е.Кайдалов. Караван-записки во время похода в Бухарию Российского каравана под воинским прикрытием в 1824 и 1825 годах, ведение начальником оного каравана над купечеством Евграфом Кайдаловым, 1-3 к.исм, 1827-28, 439-бет.

3.Г. М ей е н д о р ф . О Бухарской торговле. (Из путешествия в Буха-рию барона Г. Мейендорфа в 1820 г.) «Журнал мануфактур и торговли», 1832, № 6, 83—105-бетлар. Яна Г. Мейендорф. Сведения о Бухарии. «Журнал Министерства внутренних дел», 1835, 18-қисм, 231-бет.

4. Л. Мейе р. Киргизская степь Оренбургского ведомства, СПб, 1665, 34-бет. Яна қаранг: А. Шепелев. Очерк военных и дипломатических сношений России с Среднею Азию до начала XIX в., Тошкент, 1895, 45-бет.

5. Б у д р и н . Русские в Бухаре в 1820 году. (Записки очевидца), Оренбург, 1871, 14-бет.

6. В. Г. Г е п т н е р , Эдуард Александрович Эверсман, М., 1940. 22-бет. 39

7. Ф. А. Б р о к г а у з, И. А. Ерон. Энциклопедический словарь, СПб, 1904, т. 79, 130—131-бетлар.

8.Отрышок из путешествия в Бухарию полковника барона М\$иендорфа в 1820—1821 гг. «Северный архив», 1824, №3, Я32-бет.

9.В. В. Завьялов. Исторический обзор путешествий в Бухарию. Уфа, 1884, 12-бет.

10. А. Р. Мухамеджанов, Т. Нигматов Некоторые Источники Истории Взаимоотношений Бухары И Хивы! С Россией ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК УзССР ТАШКЕНТ — 1957